

Date: 21st February-2025

TALABALARDA MA'NAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Rasuljan Yakupbayevich

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistri

Ilmiy rahbar: O'rinnov Uyg'un Abdullayevich

p.f.d (DSc), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha fikr mulohazalar berilgan. Avvalo kompetensiya va kompetentlik tushunchasining mohiyati olib berilgan, bu mavzuning bugungi kunda dolzarbligi va uning omillari ko'rsatilgan. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati tahlil qilingan. Bir qancha olimlarning fikrlari tadqiq qilingan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: talaba, kompetentlik, pedagog, kompetensiya, ta'lim, bilim, o'qituvchi.

Abstract: This article provides reflections on improving the theoretical and pedagogical foundations of the development of spiritual competence in students. First of all, the essence of the concepts of competence and competency is revealed, the relevance of this topic today and its factors are shown. The essence of the qualities reflected on the basis of professional competence is analyzed. The opinions of several scientists have been studied and conclusions have been drawn.

Keywords: student, competence, teacher, competence, education, knowledge, teacher.

Аннотация: В данной статье приведены мнения по совершенствованию теоретико-педагогических основ развития духовной компетентности у студентов. Прежде всего, раскрыта сущность понятий компетенция и компетентность, показана актуальность данной темы на сегодняшний день и ее факторы. Проанализирована сущность качеств, отраженных на основе профессиональной компетентности. Были исследованы мнения ряда ученых и сделаны выводы.

Ключевые слова: студент, компетентность, педагог, компетенция, образование, знание, учитель.

Kirish. Jahonda umummadaniy kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rish, ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «bilim – ko'nikma – malaka»ni oltita birlik – «bilim – ko'nikma – malaka – amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya – kompetentlik» tarzida talqin etilishi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimi yangi bosqichga olib chiqishga doir ko'plab yangicha yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa bo'lg'usi mutaxassislarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish asosida madaniy ko'nikmalarga ega bo'lish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, xalqlarning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur jarayonda tarix fanini

Date: 21stFebruary-2025



o‘qitish tizimini modernizatsiyalash va shu asosida tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni, tarixiy ideallarga doir bilimlarni rivojlantirishning zamonaviy metodikasini yaratish orqali umummadaniy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik zarurati yuzaga chiqmoqda. Dunyoning ilg‘or ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida pedagogik kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish, bo‘lg‘usi kadrlarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish asosida tarixiy-madaniy ko‘nikmalarini bilish, anglash va ularga ega bo‘lish, tarixiy ideallarga doir bilimlarini o’stirish asosida tarixiy haqiqatlarga obyektiv munosabatini qaror toptirishga doir ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar orqali jamiyatlarning tarixiy xotirasni reallashtirish, tarixiy tafakkurini turli uydirmalardan tozalash, tarixiy ideallarning qahramonligi, vatanparvarligi, ilmfan, san’at, din, boshqaruv va boshqa ijtimoiy munosabatlardagi faolligini yoritish orqali umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish ham maqsad qilinmoqda. Bunday xalqaro ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda tarixiy ideallarga oid bilimlar asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy muammoning tavsiyi va yechimi. Talabalarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish dolzarbliji bir qator omillar bilan belgilanadi. Hozirgi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o’zgarishlar talabalarni yangi sharoitlarga moslashishga va ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirishga undaydi. Globalizatsiya jarayonlari talabalarning turli madaniyatlar va qarashlar bilan tanishishiga olib keladi. Bu esa ma’naviy kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali talabalar ko‘plab ma'lumotlarga ega bo‘lishadi. Ularni to‘g’ri tanlash va tahlil qilish qobiliyati ma’naviy kompetentlikni oshiradi. Talabalarning shaxsiy rivojlanishi, o’z-o’zini anglash va o’zini ifoda etish qobiliyatları ma’naviy kompetentlikning asosiy jihatlaridan biridir. Ta’lim tizimida ma’naviy qadriyatlarini o’rgatishga alohida e’tibor berilishi, talabalar uchun ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Talabalarning axloqiy va etik qadriyatlarini shakllantirish, ularni mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalash muhimdir. Shu sababli, talabalarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish nafaqat ta’lim jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayon talabalar uchun kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishlari va o’zaro munosabatlarda etik me’yorlarga rioya qilishlari uchun zarurdir.

Yangi O‘zbekiston strategiyasida tarixiy-ma’naviy omil, ya’ni xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati asosida tarixiy ideallarga oid xolis munosabatni va dunyoqarashni shakllantirish va shu asosida “milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruxda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish” 1 dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu orqali “o‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan” umummadaniy dunyoqarashi rivojlangan jamiyatni yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Buning uchun “yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o’rgatish, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirish” orqali umummadaniy

Date: 21stFebruary-2025

bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, bo'lajak kadrlarda ham umummadaniy kompetentlikni shakllantirish tizimini takomillashtirish talab etilmoqda.

S.Ya. Batishev va B.S. Gershunskiy kasbiy kompetentlikni "savodxonlik kasbiy kompetentlik – madaniyat - mentalitet" umumiyligi bo'g'inidagi ta'limga natijasi sifatida qaraydi. B.S. Gershunskiyning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, fanni o'zlashtirish ko'nikmalari va ularni faoliyatda amalga oshirish malakalarining shakllanganligining ma'lum darajasi, sifat va natijaviy ko'rsatkichini aks ettiradi. Uning yozishicha, kasbiy kompetentlik, asosiy ravishda kasbiy ta'luminga darajasi, insonning tajribasi va individual qobiliyatları, uning uzuksiz mustaqil ta'limga va o'z-o'zini takomillashtirishga motivli intilishi, ishga ijodiy va mas'uliyatli munosabati bilan aniqlanadi. U kasbiy kompetentlik funksional savodxonlikdan tashqari, fan mazmunidan ko'ra shaxsnинг shakllantiriladigan sifatlari: mas'uliyat, ijod, qiziquvchanlik, tirishqoqlik, yangi bilimlarni egallashga intilish, haqiqatni estetik idrok etish, o'z ishining haqiqiy professionalini tasavvur etib bo'lmaydigan yuqori axloqiylikni ajratadi. Kasbiy kompetentlik o'z ichida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, shaxsiy tartibdagi jihatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida ifodalanishi mumkin. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarining egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirishini nazarda tutadi. Suningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati quyidagicha yoriltiladi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.
2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.
3. Shaxsiy kompetentlik -izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
4. Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
5. Ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagogning kasbiy kompetentligi — bu o'qituvchining o'z vazifalarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar to'plamidir.

O'qituvchi ta'limga nazariyasi, pedagogika, psixologiya, fan va texnologiyalar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Bu bilimlar o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun

Date: 21stFebruary-2025

zarur. O'qituvchi turli pedagogik metodlar va texnikalarni bilishi va ulardan samarali foydalanishi kerak. Bu o'z ichiga an'anaviy va innovatsion usullarni ham oladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomala qilish, ularning ehtiyojlarini tushunish va ularga yordam berish qobiliyatiga ega bo'lishi muhimdir. Bu, shuningdek, ijtimoiy va emotsiyal intellektni ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimini baholash va ularning rivojlanishini tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu jarayon o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Zamonaviy ta'lif tizimida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, yangi texnologiyalarni integratsiya qilish va o'quv jarayonini yangilash muhimdir. O'qituvchi uchun shaxsiy sifatlar, masalan, sabr-toqat, empatiya, ishonchlilik va motivatsiya ham muhimdir. Bu sifatlar o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Pedagoglar doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishlari, kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishlari zarur. Pedagogning kasbiy kompetentligi nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirishga, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ta'lif muassasalarida pedagoglarning kompetentligini oshirishga alohida e'tibor berilishi lozim.

Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jihatlar quyidagilardan iborat:

1. Ma'naviy kompetentlik tushunchasini aniqlash: Ma'naviy kompetentlikning mohiyati, tarkibi va uning ta'lif jarayonidagi o'rnii haqida aniq tushunchalar ishlab chiqish. Bu, o'z navbatida, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatni o'z ichiga oladi.
2. Pedagogik nazariyalar: Ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik nazariyalarni tahlil qilish va ularni amaliyotga tadbiq etish. Bu, masalan, konstruktivizm, humanizm va boshqa pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga olishi mumkin.
3. O'quv dasturlarini takomillashtirish: Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun o'quv dasturlarini yangilash va ularni ma'naviy-axloqiy ta'lif elementlari bilan boyitish. O'quv dasturlarida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan fanlar va mavzularni kiritish.
4. O'qitish metodlari va texnikalari: Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish va qo'llash. Bu, guruh ishlari, muhokama, rol o'yinlari va boshqa interaktiv usullarni o'z ichiga olishi mumkin.
5. Baholash tizimini ishlab chiqish: Talabalarning ma'naviy kompetentligini baholash uchun yangi mezonlar va usullarni ishlab chiqish. Bu, o'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarni, axloqiy qarorlarini va ijtimoiy mas'uliyatini baholashni o'z ichiga oladi.
6. O'qituvchilarning professional rivojlanishi: O'qituvchilarni ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish. O'qituvchilar uchun seminarlar, treninglar va kurslar tashkil etish.

Date: 21stFebruary-2025

7. Ijtimoiy hamkorlik: Ta'lim muassasalari, oilalar va jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash. Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda oilaning roli va jamoatchilikning ishtirokini oshirish.

8. Tadqiqot va innovatsiyalar: Ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish va innovatsion yondashuvlarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalarni amaliyatga tatbiq etish.

Ushbu jihatlarni hisobga olib, talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Bu nafaqat talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish, ularning shaxsiy, ijtimoiy va professional hayotida muhim rol o'ynaydi. Bu kompetentlik, o'z navbatida, axloqiy qarorlar qabul qilish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va ma'naviy qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun pedagogik nazariyalar va yondashuvlarni o'rganish zarur. Konstruktivizm, humanizm va boshqa pedagogik paradigmalar, talabalarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturlarini ma'naviy-axloqiy ta'lim elementlari bilan boyitish, talabalarga amaliy tajribalar orqali ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish imkonini beradi. Interaktiv o'qitish metodlari, muhokama va guruh ishlari orqali o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Talabalarning ma'naviy kompetentligini baholash uchun yangi mezonlar va usullarni ishlab chiqish, ularning rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Baholash jarayoni o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi va refleksiyasini rag'batlantirishi lozim. Oilaning ta'lim jarayonidagi ishtiroki va jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi talabalar uchun ijobiy muhit yaratadi. Tadqiqotlar va innovatsiyalar yordamida talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishda yangi usullar va texnologiyalarni qo'llash zarur. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ushbu xulosalar asosida talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Bu nafaqat talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGANA ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Мирзиёев III.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 286
2. Boltayeva M.“Bo‘lg“usi o‘qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish(tarixiy ideallar asosida)”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. 2023.5-b.
3. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8547-8555.

Date: 21stFebruary-2025

4. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.
5. Karimova, M. O., & Sharipova, D. A. (2023). BO 'LAJAK MUTAXASSISLARNI INNOVATSION YONDOSHUV ASOSIDA PEDAGOGIK AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 18-26.
6. Каримова, М., & Тоджиев, Х. (2021). Ўқув жараёнини технологик ташкил этиш хусусиятлари. Общество и инновации, 2(8/S), 227-233.
7. Мадаминов, Н. М. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАСВИРИЙ САНЬАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИДАН КЕНГ ФОЙДАЛАНИШ ЕЧИМЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 46-50.
8. Sulaymonova, S. B. Q. (2021). TASVIRIY SAN'AT ORQALI DUNYO SIVILIZATSIYASINI O'RGANISH OMILLARI. Academic research in educational sciences, 2(6), 730-735.
9. Маркова А.К. Психологический анализ профессиональной компетентности учителя // Советская педагогика. – 1990. – № 8. – С. 82-88.
10. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла. Дис. канд. пед. наук. – Т.: 2002. – 146 с